

TEXNOKRATIK TA’LIM PARADIGMASINING TALABALARNING IJTIMOIIY FAOLLIGIGA TA’SIRI: EKSPERIMENTAL TAHLIL

Sultanov Shoxruh Rahmon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: shoxruhsultanov@mail.ru

ORC ID: 0009-0009-2804-5263

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21175063>

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnokratik ta’lim paradigmasining oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligiga ko’rsatadigan ta’siri eksperimental yondashuv asosida tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida texnologik vositalarning ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelishi talabalarining kommunikativ faoliyati, ijtimoiy tashabbuskorligi, fuqarolik pozitsiyasi hamda jamoaviy hamkorlik ko’nikmalariga sezilarli darajada ta’sir qilayotgani ilmiy asoslangan. Tadqiqot davomida oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida kuzatuv, anketa, suhbat va eksperimental tahlil metodlari qo’llanilib, texnokratik yondashuvning ijobiy hamda salbiy jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari texnologik muhitning talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishi bilan bir qatorda, ayrim holatlarda real ijtimoiy munosabatlarning sustlashuviga ham sabab bo’lishini ko’rsatdi. Maqolada texnokratik ta’limning ijtimoiy faollikka ta’sirini muvozanatlashtirishga oid ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: texnokratik paradigma, ijtimoiy faollik, oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, talaba shaxsi, pedagogik jarayon, eksperimental tahlil, innovatsion ta’lim, kommunikativ kompetensiya, raqamli muhit, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiylashuv.

Аннотация: В данной статье на основе экспериментального подхода анализируется влияние технократической образовательной парадигмы на социальную активность студентов высших образовательных учреждений. Научно обосновано, что глубокое внедрение технологических средств в образовательный процесс в условиях современной цифровой трансформации оказывает значительное влияние на коммуникативную активность студентов, их социальную инициативность, гражданскую позицию и навыки коллективного взаимодействия. В ходе исследования были применены методы наблюдения, анкетирования, интервью и экспериментального анализа среди студентов высших учебных заведений, что позволило выявить как положительные, так и отрицательные аспекты технократического подхода. Результаты исследования показали, что технологическая среда способствует развитию компетенций работы с информацией, однако в ряде случаев приводит к ослаблению реальных социальных отношений. В статье разработаны научно-теоретические выводы и практические рекомендации по обеспечению баланса между технократическим образованием и социальной активностью студентов.

Ключевые слова: технократическая парадигма, социальная активность, высшее образование, цифровая трансформация, личность студента, педагогический процесс, экспериментальный анализ, инновационное образование, коммуникативная компетенция, цифровая среда, гражданская позиция, социализация.

Abstract: This article analyzes the impact of the technocratic educational paradigm on the social activity of university students based on an experimental approach. It

scientifically substantiates that the deep integration of technological tools into the educational process under conditions of modern digital transformation significantly affects students' communicative activity, social initiative, civic position, and collaborative interaction skills. During the research, observation, questionnaires, interviews, and experimental analysis methods were applied among higher education students, which made it possible to identify both positive and negative aspects of the technocratic approach. The results demonstrated that while the technological environment contributes to the development of information-processing competencies, it may also weaken real social relationships in certain situations. The article presents scientific-theoretical conclusions and practical recommendations aimed at balancing technocratic education and students' social activity.

Keywords: technocratic paradigm, social activity, higher education, digital transformation, student personality, pedagogical process, experimental analysis, innovative education, communicative competence, digital environment, civic position, socialization.

Kirish

XXI asrda dunyo miqyosida kuzatilayotgan globallashtirish, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimiga ham tubdan yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan chegaralanib qolmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, mustaqil fikrlashi va innovatsion muhitga moslashuvchanligini shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan texnokratik ta'lim paradigma zamonaviy pedagogik jarayonning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur paradigma ta'limni texnologik vositalar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv va innovatsion axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Natijada ta'lim sifati, axborot almashinuvi tezligi va o'quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortmoqda [1].

So'nggi yillarda dunyo oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim, raqamli platformalar va virtual kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi talabalarning kundalik ijtimoiy faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda texnologik vositalar inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Bu esa talabalar ijtimoiylashuvi, jamoaviy munosabatlari, liderlik qobiliyatlari hamda real ijtimoiy muhitdagi ishtiroki masalasini yangi ilmiy yondashuv asosida tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Chunki texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda, ayrim hollarda insonlar o'rtasidagi bevosita muloqotning qisqarishi, individualizmning kuchayishi va ijtimoiy passivlikning ortishiga ham sabab bo'lishi mumkin [2].

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli transformatsiya jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta'lim tizimini raqamlashtirish, elektron platformalarni keng joriy etish va innovatsion texnologiyalar asosida mutaxassis tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [3]. Oliy ta'lim muassasalarida HEMIS, Moodle, Google Classroom, Sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari hamda masofaviy ta'lim platformalarining keng joriy etilishi texnokratik paradigma unsurlarining amaliy ifodasiga aylangan. Bunday sharoitda talabalarning ijtimoiy faolligini saqlab qolish, ularni jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga faol jalb etish hamda raqamli muhit bilan real ijtimoiy

muhit o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash pedagogik jihatdan muhim masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotidagi ongli ishtiroki, tashabbuskorligi, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasining muhim ko’rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Talabanning ijtimoiy faolligi nafaqat uning akademik muvaffaqiyati, balki kelajakdagi kasbiy kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuvchanligiga ham bevosita ta’sir qiladi. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida faqat texnik bilimlarga ega mutaxassis emas, balki jamoa bilan ishlay oladigan, kommunikativ qobiliyatga ega, ijtimoiy tashabbuskor va kreativ fikrlovchi kadrlar talab etilmoqda [4]. Shu sababli texnokratik ta’limning talabalar shaxsiga ko’rsatadigan ta’sirini, ayniqsa ularning ijtimoiy faolligi bilan bog’liq jihatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida namoyon bo’lmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi texnokratik ta’lim paradigmasining talabalarning ijtimoiy faolligiga ta’sirini eksperimental tahlil asosida o’rganish, mavjud pedagogik holatni baholash hamda ta’lim jarayonida texnologik va ijtimoiy komponentlar o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot davomida texnologik muhitning talabalarning kommunikativ faoliyati, jamoaviy hamkorligi, ijtimoiy tashabbuskorligi va fuqarolik mas’uliyatiga ko’rsatadigan ta’siri empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti insoniyat hayotini yangi bosqichga olib chiqayotgan bir paytda, ta’lim tizimining asosiy vazifasi faqat texnik bilimlarni shakllantirish emas, balki ma’naviy barkamol, ijtimoiy faol va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat bo’lib qolmoqda. Shu jihatdan texnokratik paradigmaning talaba shaxsiga ta’sirini o’rganish pedagogika fanining istiqbolli va strategik yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Texnokratik ta’lim paradigmasi bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalari, elektron ta’lim platformalari, raqamli boshqaruv tizimlari va virtual kommunikatsiya vositalarining keng joriy etilishi ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Biroq texnologik muhitning jadallik bilan rivojlanishi talaba shaxsining ijtimoiy faolligi, jamoaviy munosabatlari va kommunikativ ko’nikmalariga qanday ta’sir qilayotgani masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammolardan biri bo’lib qolmoqda.

Bugungi talaba hayotida texnologiyalar nafaqat bilim olish vositasi, balki kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. Elektron platformalar orqali topshiriq bajarish, masofadan turib muloqot qilish, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish va virtual muhitda ishlash talabalar faoliyatining asosiy ko’rinishiga aylanib bormoqda. Natijada vaqt va masofa bilan bog’liq muammolar qisqarmoqda, axborot olish imkoniyatlari kengaymoqda va ta’lim jarayoni yanada qulaylashmoqda [5]. Shu bilan birga, ayrim hollarda texnologik vositalarning haddan tashqari ustuvorligi talabalarning real ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashishiga ham sabab bo’lmoqda.

Tadqiqot davomida oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida kuzatuv va so’rovnoma asosida eksperimental tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda turli yo’nalishlarda tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi. So’rovnomalarda talabalarning ijtimoiy tadbirlardagi ishtiroki, jamoaviy ishlardagi faolligi, liderlik qobiliyatlari, raqamli

platformalardan foydalanish darajasi hamda real ijtimoiy muloqotga munosabati o’rganildi. Olingan natijalar texnologik muhitning ijtimoiy faollikka ikki xil ta’sir ko’rsatayotganini namoyon etdi.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, raqamli vositalardan samarali foydalanuvchi talabalar axborot almashinuvi, innovatsion fikrlash va mustaqil ta’lim olish jarayonida yuqori natijalarga ega bo’lmoqda. Ayniqsa, virtual ta’lim platformalari orqali xalqaro seminarlar, onlayn konferensiyalar va ilmiy forumlarda qatnashish imkoniyatlari yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirayotgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo’ldi. Bu esa talabalarning global ijtimoiy jarayonlarga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda [6].

Shu bilan birga, eksperimental kuzatuvlar davomida ayrim salbiy holatlar ham aniqlandi. Jumladan, ko’plab talabalar virtual muloqotni real kommunikatsiyadan ustun qo’ya boshlagani kuzatildi. Bu esa jamoaviy faoliyatdagi passivlik, ijtimoiy tashabbusning sustlashuvi va real hayotdagi muloqot ko’nikmalarining zaiflashuviga olib kelmoqda. Ayrim talabalar ijtimoiy tarmoqlardagi faollikni haqiqiy ijtimoiy faollik bilan tenglashtirayotgani ham kuzatildi. Vaholanki, jamiyat taraqqiyoti uchun insonning real ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Eksperimental tahlil natijalariga ko’ra, texnologik vositalardan me’yorida va maqsadli foydalanayotgan talabalar orasida ijtimoiy tashabbuskorlik darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bunday talabalar ko’proq loyiha faoliyatida qatnashadi, volontyorlik tashabbuslarida ishtirok etadi va jamoaviy muammolarni hal qilishda faolroq bo’ladi. Aksincha, virtual muhitga haddan tashqari bog’lanib qolgan talabalarda ijtimoiy befarqlik, individualizm va kommunikativ qiyinchiliklar ko’proq uchrashi kuzatildi.

Quyidagi jadvalda tadqiqot davomida olingan ayrim natijalar umumlashtirilgan:

1-jadval. Talabalarda texnologik faollik va ijtimoiy faollik o’rtasidagi bog’liqlik

Ko’rsatkichlar	Yuqori texnologik faollik (%)	O’rtacha texnologik faollik (%)	Past texnologik faollik (%)
Ilmiy tadbirlarda ishtirok	78	56	31
Jamoaviy loyihalarda qatnashish	72	61	38
Real ijtimoiy tadbirlardagi faollik	49	63	41
Virtual kommunikatsiya ustunligi	84	57	29
Liderlik tashabbuslari	68	52	34

Jadval natijalari texnologik faollik bilan ilmiy va innovatsion faoliyat o’rtasida ijobiy bog’liqlik mavjudligini ko’rsatmoqda. Biroq real ijtimoiy munosabatlar masalasida texnologik vositalarning ortiqcha ustuvorligi ayrim salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi ham namoyon bo’lmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida texnokratik paradigmani to’liq inkor etish mumkin emas. Chunki zamonaviy taraqqiyot sharoitida texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi platformalar individual ta’lim trayektoriyasini yaratish, bilimlarni tezkor tahlil qilish va o’quv jarayonini optimallashtirish imkonini bermiqda [8]. Biroq pedagogik jarayonda inson omili, ijtimoiy munosabatlar va tarbiyaviy muhit ustuvorligini saqlab qolish zarur hisoblanadi.



Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundan iborat bo’ldiki, talabalarning ijtimoiy faolligi texnologik vositalarning mavjudligi bilan emas, balki ulardan foydalanish madaniyati bilan chambarchas bog’liqdir. Agar texnologiyalar ta’lim, hamkorlik va ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish maqsadida qo’llansa, ular ijobiy natija beradi. Aks holda esa virtual muhit insonning real ijtimoiy faolligini cheklab qo’yishi mumkin [9].

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy oliy ta’lim tizimida texnologik va ijtimoiy komponentlar o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarni nafaqat raqamli kompetensiyalarga, balki jamoaviy ishlash, ijtimoiy tashabbus ko’rsatish, liderlik va fuqarolik mas’uliyatiga ham yo’naltirish bugungi ta’lim siyosatining muhim strategik yo’nalishi bo’lib qolmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari texnokratik ta’lim paradigmasi zamonaviy oliy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib borayotganini ko’rsatdi. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt vositalari va elektron ta’lim platformalari ta’lim samaradorligini oshirish, axborot almashinuvi tezligini kuchaytirish hamda talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, innovatsion muhitda shakllanayotgan yoshlarning global axborot maydoniga integratsiyalashuvi, ilmiy faoliyatga qiziqishi va texnologik kompetensiyalarining rivojlanishi texnokratik paradigmaning ijobiy jihatlardan biri sifatida namoyon bo’ldi [10].

Shu bilan birga, tadqiqot davomida texnologik vositalarning haddan tashqari ustuvorligi ayrim salbiy holatlarni ham yuzaga chiqarishi aniqlandi. Jumladan, virtual kommunikatsiyaning kuchayishi real ijtimoiy munosabatlarning sustlashuvi, jamoaviy faoliyatdagi passivlik va talabalar orasida individualistik kayfiyatlarning ortishiga sabab bo’layotgani kuzatildi. Ayniqsa, raqamli muhitga ortiqcha bog’lanib qolish talabalar ijtimoiy tashabbuskorligining pasayishiga ham ta’sir ko’rsatmoqda. Bu esa texnologik taraqqiyot va insoniy ijtimoiy qadriyatlar o’rtasidagi muvozanatni saqlash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Eksperimental tahlillar shuni ko’rsatdiki, texnologik vositalardan maqsadli va ongli foydalanilgan holatlarda talabalar ijtimoiy faolligi yuqori darajada namoyon bo’ladi. Bunday talabalar jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etadi, ilmiy tadbirlarga qiziqadi, liderlik tashabbuslarini ilgari suradi hamda ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his qiladi. Aksincha, texnologiyalardan faqat individual ehtiyoj va virtual kommunikatsiya vositasi sifatida foydalanish real ijtimoiy faoliyatning cheklanishiga olib kelishi mumkin [11].

Tadqiqot davomida olingan natijalar texnokratik ta’lim paradigmasini pedagogik va ijtimoiy jihatdan muvozanatlashtirish zarurligini ko’rsatdi. Oliy ta’lim muassasalarida texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, talabalarni real ijtimoiy muhitga jalb etish, jamoaviy ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytirishga qaratilgan tarbiyaviy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati texnokratik ta’lim muhiti bilan talabalarning ijtimoiy faolligi o’rtasidagi bog’liqlikni eksperimental asosda tahlil qilganida namoyon bo’ladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida pedagogik faoliyatni tashkil etishda, raqamli ta’lim siyosatini ishlab chiqishda hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni takomillashtirishda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilishi mumkin.



Oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalari bilan bir qatorda talabalarni real ijtimoiy loyihalar va jamoaviy tashabbuslarga keng jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir [13]. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt va elektron platformalardan foydalanishda pedagogik nazorat hamda ma’naviy-tarbiyaviy yondashuv uyg’unligini ta’minlash zarur.

Talabalar ijtimoiy faolligini baholashda faqat akademik ko’rsatkichlar emas, balki volontyorlik faoliyati, jamoatchilik ishlari va ijtimoiy tashabbuskorlik mezonlarini ham hisobga olish tavsiya etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida “raqamli madaniyat” va “ijtimoiy kommunikatsiya”ga oid maxsus seminar hamda treninglarni muntazam tashkil etish talabalar o’rtasida sog’lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi [14].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1973. – 507 p.
2. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – 544 p.
3. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
4. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996. – 556 p.
5. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011. – 360 p.
6. Umarov B. Oliy o’quv yurtida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ijtimoiy faollikni oshirishning pedagogik asoslari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2022. – №2. – B. 21–24.
7. Mutalov S. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy faollik muhitini yaratish orqali talabalar liderlik qobiliyatini rivojlantirish // Pedagogik mahorat. – 2023. – №4. – B. 76–80.
8. Mirzaxo’jayeva D. Talabalarning ijtimoiy faolliklarini shakllantirish omillari, mezonlari // PEDAGOGS International Research Journal. – 2022. – Vol. 12. – B. 90–94.
9. Ergasheva M. Improving Students' Social Activity Skills and Implementing it in Practice // EXCELLENCIA: International Multi-disciplinary Journal of Education. – 2023. – Vol. 1, Issue 5. – P. 187–191.
10. Raxmanova M.Q. O’quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy zaruriyat sifatida // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 4. – B. 492–497.
11. Sherazi S.A., Khan F.M. Developing High Order Competencies in Students Through the Integration of Research-Oriented Activities // Journal of Asian Development Studies. – 2025. – Vol. 14, Issue 2. – P. 355–367.
12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.
13. To’xtayev N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va innovatsiya”, 2022. – 111 b.
14. Rahmonov D. Ilmiy ish yozish va rasmiylashtirish qoidalari. – Toshkent: O’zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. – 206 b.